

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Farg'ona politexnika instituti  
rektori \_\_\_\_\_ O'.R.Salomov  
«\_\_\_\_\_» 2023 y

**05.06.02 – « To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki  
ishlov berish »**

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktaranturaga kirish sinovida bilim darajasini  
belgilovchi maxsus fanlarning

**DASTURI VA BAHOLASH  
ME'ZONLARI**

**05.06.02 – «To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»** ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktaranturaga kirish sinovlaridan bilim darajasini belgilovchi maxsus fan dasturi va baholash mezonlari O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standartlari talablari asosida va Farg‘ona politexnika instituti «Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi» kafedrasining ilmiy salohiyati va tajribalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i bo‘lgan to‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish hamda to‘qimachilik va yengil sanoatining rivojlanish istiqbollarini inobatga olgan holda tuzilgan.

«Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi» kafedrasining ilmiy – uslubiy seminarida 2023 yilning «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kunida ( «\_\_\_» – son majlis bayonnomasi) muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Farg‘ona politexnika instituti ilmiy kengashi tomonidan 2023 yilniing «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kunida ( «\_\_\_» – son majlis bayonnomasi) muhokama qilingan va tasdiqlangan.

**Rais:** t.f.d., prof. S.F.Ergashev

**Tuzuvchi:** t.f.d.,prof. G.N.Valiyev

**Kafedra mudiri:** t.f.f.d.,PhD. J.I.Oripov

## I. SO‘Z BOSHI

Ushbu dastur Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2017 yil 16 fevraldagি PF-4958-son Farmoniga, «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestasiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasining qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017 yil 22 may, 304-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni belgilaydi.

Farg‘ona politexnika institutida **05.06.02 – «To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish»** bo‘yicha tayanch doktaranturaga kirish sinovlari uchun quyidagi fanlaridan va ijodiy qobiliyatni baxolash tayinlangan:

1. Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi
2. To‘qimachilik materialshunosligi
3. To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari (trikotaj).
4. To‘quvchilik texnologiyasi

Ayrim savollar umumkasbiy fanlardan olingan va tayanch doktoranturaga kirish jarayonida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar darajasini aniqlashga yordam beradi.

Quyidagi dastur ana shu fanlar ishchi o‘quv dasturlari asosida tuzilgan.

## II. SINOV DASTURI

1. Tabiiy tolalar klasifikatsiyasi?
2. Materiallarni mexanik xossalarini yoritib bering?
3. Trikotaj matolarini to‘qilish turlariga tavsif bering?
4. To‘qimalarni loyihalashni tushuntirib bering?
5. Paxta xomashyosi va uning maxsulotlari;
6. Passiv va aktiv tadqiqotlar mohiyatini tushuntiring?
7. Xom ashyoni to‘quvchilikka tayyorlash texnologik jarayonini tushuntiring;
8. Trikotaj xom ashyolarini asosiy xossalarini yoriting?
9. Tola tozalagichlar ishslash jarayonlari?;
10. Tikuvchilik gazlamalarini yemirilishga chidamliligini izohlang?
11. Trikotaj matolarini o‘rilish turlari va xossalarini bayon qiling?
12. Arqoq ipni to‘qima chetiga jipslashtirishni tushuintiring?
13. Tolali chiqindilarni qayta ishslash mashinalari?
14. Noto‘qima matolarining tuzilishi va xossalari nimalardan iborat?
15. Ilgakli ignali mashinalarda halqa hosil qilish jarayoni.
16. Texnologik jarayon deb nimaga aytildi?
17. Loyiha tarkibiga nimalar kiradi?;
18. Nima sababli jinlangan uzun tola navlari ko‘p marta tozalanadi?;
19. To‘qimachilik materiallarining mexanik xossalarini yoriting .
20. Tanda ipini taranglash va uzatishni tushuntiring?
21. Valikli jin uskunasini ishlashi va jarayonlari?
22. O‘rtacha absolyut chetlashish?
23. Tikuvchilik materiallarining egilish deformatsiyasiga bog‘liq xususiyatlarini yoriting?
24. To‘quv o‘rilihlari turlari va ularni izohlang?
25. Texnologik jarayon va paxta tozalash rejasi?
26. Tikuvchilik gazlamalarini yemirilishga chidamliligi ta’riflang?
27. Keskin farqlanuvchi qiymatlarni paydo bo‘lish omillari va shart-sharoitlari?
28. Ko‘ndalang va bo‘ylama trikotaj to‘qimalarini tushuntiring?
29. Chigitli paxtani quritish usullari?
30. "Loyiha topshi rig‘i" kimlar tomonidan ishlab chiqiladi?;
31. Ringel trikotaj to‘qimalarining tuzilishi, o‘ziga xosligi, afzalligi va kamchiliklari.?
32. Tabiiy tollarni olinishini tushuntiring?
33. Mayda iflosliklardan tozalash mashinalari?
34. Dastlabki tadqiqotlarning natijalarini qayta ishslashni tushuintiring?
35. Tabiiy va kimoviy tolalarni olinishi va tuzilishi nimalardan iborat?

36. Lastikli xalqa xosil qilish jarayonini tushuntiring?
37. Jinlash jarayonini tuzilishi va ishlashi?
38. Iplarni qayta o'rashni tushuntiring?
39. Viskoza eritmasidan ip yigirish nimalardan iborat?
40. Interlok trikotaj to'qimalari tuzilishi, xususiyatlari va loyixalash?
41. 2SB-10 quritish barabanining ish faoliyati?
42. Pillani yetishtirish agrotexnikasi qanday nimalardan iborat?
43. Trikotaj turlari. Xalqa tuzilishi. Trikotaj to'qimasining o'lchamlari.?
44. Tikuv buyumlari matolarini xossalari qanday?
45. Chigitli paxtani yirik iflosliklardan tozalash uskunalari?
46. To'quv dastgohining asosiy mexanizmlarini tushuntiring?
47. Sun'iy tolalarning olinishi, tuzilishi va xususiyati nimalardan iborat?
48. Bir ignadonli mashinalarda to'quv usulini tushuntiring?
49. G'o'za zararkunandalariga nimalar kiradi?
50. Toshpaxta tolalarнning olinishi, tuzilishi va xususiyati nimalardan iborat?  
51. Kartoteka, annotatsiya turlari va adabiy manbalarning yozilish shakllari va maqsadlar bilan tanishish?
52. Gorizontal va vertikal bo'yicha zichlikni aniqlash?
53. Iflosliklar qanday turlarga bo'linadi
54. Paxta, jun va ipak tolalalarini olinishi?
55. Arqoq ipini xomuzaga tashlash usullari ?
56. Ko'ndalangiga to'qilgan bosh to'qimalarning tuzilishi va xususiyatlarini tushuntiring
57. Jinlash jarayoni tola sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
58. Geologik izlanish ishlariga nimalar kiradi?
59. Tabiiy va kimoviy tolalarni olinishi va tuzilishi nimalardan iborat?
60. Teskari trikotaj to'qimalari tuzilishi, xususiyatlari va loyixalash?
61. Kanop urug'lik uchun qachon ekiladi?
62. Issiqlik saqlash xususiyatlari yuqori bo'lgan trikotaj to'qimalar tuzilishi?
63. Texnologik jarayonni loyihalashda hal qilinadigan asosiy masalalar?
64. Mayda ifloslikdan tozalovchi shnekli uskunani ko'rsating?
65. O'zbekistonda qaysi tur g'o'zalar ekiladi?
66. Chigitli paxtani saqlash uchun qanday omborlarning turlari bor va ularning o'lchamlari?
67. Tukli trikotaj to'qimalarining tuzilishi, o'ziga xosligi, afzalligi va kamchiliklari?
68. Yarim davrli deformatsiyada olinadigan ko'rsatgichlar qanday aniqlanadi?
69. Trikotaj xom ashyolarini asosiy xossalari yoriting?
70. Tolalarning kimyoviy tarkibi nimalardan iborat?.

71. Iplarni oxorlash jarayonini tushuntiring?
72. Zamonaviy paxta tozalash zavodining umumiy texnologik jarayon sxemasi?
73. Tozalash sexining vazifasi nimadan iborat?
74. Naqshli trikotaj to‘qimalari tasnifi. Naqshli to‘qima elementlari?.
75. Tola va iplarni yo‘g‘onligi qanday aniqlanadi?
76. Paxtani qabul qilishda qaysi ko‘rsatkichlari aniqlanadi?
77. Paxtani qabul qilishda sifatini va navini belgilaydigan davlat standartini ko‘rsating?
78. Bosh planni loyihalashda kerakli dastlabki ma’lumotlar nima dan iborat?
79. Ikki ignadonli interlok mashinalarda xalqa xosil qilish jarayoni?
80. To‘qima tortish va o‘rash?

**Ixtisoslik bo‘yicha ijodiy qobiliyati, shuningdek ilmiy va ilmiy texnik axborot bilan mustaqil ishlash, tizimli mustaqil taxlil qilish, hulosalar chiqarish bo‘yicha bilimini aniqlash.**

Ilm-fan tushunchalarining mohiyati, ilm fanni jamiyatni rivojlantirishdagi o‘rni; Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadi va vazifalari; Ilmiy ish namunalari: dissertasiya, maqola, tezis nima maqsadda va qanday yoziladi, qanday mavzuda maqola va tezislар yozgansiz, ularda yoritilgan masala va muammolarga qisqacha izoh va xulosalar bering; Tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash, o‘lchash xatoliklari, tizimga xos va tasodify xatolar; Fanlarni o‘rganishda, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda axborot – kommunikasiya texnologiyalarining o‘rni; Fundamental, amaliy va innovation tadqiqotlarning mazmun-mohiyati, ularning soha fanini rivojlantirishdagi roli; Mutaxassislik bo‘yicha axborot olish manbaalari, ular bilan ishlash, saralash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, INTERNETdan foydalanish tartibi; Siz tanlagan sohaning bugungi kundagi erishilgan darajasi, yutuqlari, undagi mavjud ilmiy, ilmiy-texnik muammolar, istiqboldagi rivojlanishi; Investisiyalash va innovasiyalash bo‘yicha Davlat siyosati. Siz yashayotgan xududdagi yangi qo‘shma korxonalar, innovation ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga qo‘llash, fan-ta’lim va ishlab chiqarish integrasiyasi; Bakalavriatda va magistraturada o‘qish davrida tanlagan mutaxassisligingiz bo‘yicha qanday ilmiy tadqiqot ishlari olib borgansiz, qanday ilmiy ishlar e’lon qilgansiz (jurnaldagi, to‘plamdagи maqola, maqola tezisi), qanday ilmiy anjumanlarda ma’ruza bilan qatnashgansiz; Kashfiyot va

ixtiolar to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Ularning fan va texnikani rivojlantirishdagi o‘rni

### **III. YOZMA ISH KIRISH SINOVINI BAHOLASH MEZONLARI**

---

Tayanch doktaranturaga kirish sinovlari bo‘yicha og‘zaki javob va yozma ishlari sifatini tekshirishda ularni mazkur fan bo‘yicha ilmiy, nazariy va amaliy tayyorgarliklarini baholash lozim. Variantdagi xar bir savolning javobi va umuman, og‘zaki javob va yozma ishning matni quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Bayon qilingan materialning to‘laligi va mazmuni, unda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari va asarlaridan foydalanganligi.
2. Yozilgan matnning variantdagi savolga mosligi.
3. Javobning mantiqan ketma-ketligi va lo‘ndaligi.
4. Muxandislik tilida bayon qilinish darajasi, aniq ta’riflar va atamalardan foydalanish, ishning ko‘chirilmaganligi.
5. O‘rganilgan fan nazariyasini amaliyot bilan bog‘lay olishi va amaliy masalalarini yecha olish qobiliyati.
6. Sxemalar, rasmlar, grafik yoki epyuralar va illyustrasiyalarni aniq, to‘g‘ri va toza bajarilishi.
7. Fanning yoritilgan masalasi soxasiga tegishli fan va texnika yangiliklari, chet el adabiyotlari va Internet tarmog‘idan olingan ma’lumotlardan xamda davriy adabiyotlar, monografiyalar va qo‘srimcha adabiyotlardan foydalana bilishi.
8. Fanning amaliy masalasini yechishda mumkin bo‘lgan variantlarni keltirish va asoslangan yechimlarni qabul qila olishi.
9. O‘z fikrini bayon qila olishi, mustaqil fikrlashi, bunda nazariya va amaliyotga tanqidiy yondoshilganligi.
10. Ifodalarning aniq yozilishi. Yozma ish matnining chiroyli va toza yozilishi.
11. Imtixon topshiruvchining nutqi ravonligi.

**«Yozma ish»ni baholash 100 ballik imtixon tizimda amalga oshiriladi, jumladan, yozma ish uchun xar bir savolga 25 balldan (4 ta savol), baho berish nazarda tutilgan.**

«Yozma ish»ni baholash unga quyilgan yuqoridagi talablardan kelib chiqib, quyidagi me’zonlar asosida amalga oshiriladi:

Kirish sinovida quyilgan savollarga nazariy jihatdan to‘g‘ri va ijodiy yondashgan Tabiiy tolani dastlabki ishlash texnologiyasi, Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari, Mashinalarni loyihalash asoslari, Korxonalarini loyihalash fanlari bo‘yicha chuqur va mukammal bilimlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari mohiyatini chuqur anglagan va ularni amalga oshirish bo‘yicha puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan, mavjud muammolarni ilmiy asoslay oladigan va mutaxassislik bo‘yicha ijodiy qobiliyatga ega, shuningdek ilmiy va ilmiy texnik axborot bilan mustaqil ishlay oladigan, tizimli mustaqil taxlil qilish, hulosalar chiqara olish qobiliyatiga ega bo‘lgan kiruvchining bilim darajasi 43-50 ball qilib belgilanadi.

Sinovlarga to‘liq javob berishga harakat qilgan, yuqoridagi fanlar bo‘yicha nazariy bilimlarini va amaliy ko‘nikmalarini to‘g‘ri bayon eta olgan, mashina, jihozlar va texnologik jarayonlarni loyihalash va hisoblash masalalarida xatolikka yo‘l qo‘ymagan, sinov savollari bo‘yicha mustaqil fikrlay oladigan yoki asoslab oladigan va mutaxassislik bo‘yicha ijodiy qobiliyatga ega, shuningdek ilmiy va ilmiy texnik axborot bilan mustaqil ishlay oladigan, tizimli mustaqil taxlil qilish, hulosalar chiqara olish qobiliyatiga ega bo‘lgan kiruvchilarga bilim darajasi 36-43 ball qilib belgilanadi.

Sinovga qo‘yilgan savollarga nazariy jihatdan javob bera olgan amaliyot bilan bog‘liq savollar yoritishga harakat qilgan, biroq ular mohiyati, ta’sir etuvchi omillari va hal etuvchi vositalarni bayon etishda kamchiliklar yo‘l qo‘ygan yoki bildirgan fikrlarini ilmiy asoslay olmagan, biroq mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim standarti belgilangan minimal bilimlarga ega bo‘lgan va mutaxassislik bo‘yicha ijodiy qibiliyatga ega bo‘lgan kiruvchining bilim darajasi 27-36 ball qilib belgilanadi.

Sinov savollariga nazariy jihatdan puxta tayyorgarlik ko‘rmagan, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan, fanlar bo‘yicha muvofiq Davlat ta’lim standartida

belgilangan minimal bilimlarga va mutaxassislik bo'yicha ijodiy qobiliyatga ega bo'lmagan kiruvchilarga o'zlashtirish darjasini 0-27 ball qilib belgilandi.

#### **IV. ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirish uchun shaxsiy qo'shma qurum. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minglash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – t.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48
3. Mirziyoyev Sh.M. buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
4. Jabbarov G.J. va boshqalar "Chigitli paxtani ishlash texnologiyasi" Toshkent, O'kituvchi - 1987 yil.
5. Omonov F.B. umumiyligi ostida. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik. Toshkent "Voris nasriyot", 2008 y.
6. Babadjanov M.A. Texnologik jarayonlarni loyihalash. Darslik Toshkent, Cho'lpon, 2009 yil.
7. Parpiyev A.P., Axmatov M.A., Usmonkulov AD. Paxta xom ashyosini quritish. Darslik, Toshkent, Cho'lpon, 2009 y
8. Zikriyoyev E.Z. Paxtani dastlabki qayta ishlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, «Mehnat» 2002 y
9. Paxtani terish va tayyorlash bo'yicha yuriknoma. Toshkent, 2005.
10. Spravochnik po pervichnoy obrabotke xlopka (1 i II kniga) pod redaksiyey Maksudova I.T. i Nuraliyeva A.N. Tashkent, "Mehnat" -1994,1995.
11. Omonov F.B. umumiyligi ostida. Paxtani dastlabki ishlashni muvofiklashtirilgan texnologiyasi. Toshkent, "Mehnat" 2007.

12. Sbornik instruksiy i metodik po texnicheskому контролю и осенке ачества хлопка-сырса и производствии яго переработки в хлопкоочистительной промышленности Ташкент, "Мехнат", 1992

13. Katalog zapasnix uzlov i detaley oborudovaniy xlopkoochistitelnoy prommshlennosti. M. 1990.

14. Qalandarov R. "Paxta tozalash sanoati ishchisining spravochnigi", Toshkent, "Mexnat". 1990.

15. Sbornik instruksiy i metodik po texnicheskому контролю и осенке kachestva xlopka-syrsa i produksii yego pererabotki v xlopkoochistitelnoy promышленности Tashkent, "Mehnat", 1992

16. 14.O‘quv metodik ko‘llanmalar, O‘zbekiston Respublikasining mutaxassislikka oid yangi standartlar, dissertasiyalar, ilmiy ishlar natijalari va boshqa materiallar.

17. O‘zbekiston «Sifat» paxta mahsulotlarini standartlash va sertifikatlash markazi.

18. Internet ma’lumotlari.

